



“LISON UT-TAYR” DOSTONINING QO‘LYOZMA NUSXALARI

Muallif: Qodirova Oliy O‘ktam qizi ¹

Affiliyatsiya: Qarshi Davlat universiteti matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi 2-kurs magistranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20226242>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarining o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi, uning qo‘lyozma nusxalari va ilmiy-tanqidiy matnini yaratish jarayoni haqida ma‘lumot beriladi. Asarning turli davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozmalari hamda ularning turli kutubxona fondlarida saqlanishi haqida ham so‘z yuritiladi. Shuningdek, Navoiy asarlari ustida olib borilgan tekstologik tadqiqotlarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: qo‘lyozma, inventar, asar, ilmiy-tanqidiy matn, tayanch nusxa, litografik.

Alisher Navoiyning yashab ijod etgan vaqtdan buyon bizning davrimizga qadar besh asr o‘tdi. Ushbu vaqt oralig‘ida Navoiy asarlari qo‘lyozma shakllarda bir necha bor ko‘chirib nusxalandi. Bu qo‘lyozmalarning nusxalari turli davrlarda turli bilim saviyasidagi kotiblar tomonidan tayyorlangan va ularning aksariyati Hirot, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Ozarbayjon, Afg‘oniston, Hindiston va boshqa joylarda ko‘p nusxalarda ko‘chirilgan. Ushbu qo‘lyozmalarning o‘qish jarayonida, ularning barchasida bir xil kamchilik ko‘zga tashlanadi. Ya‘ni qaysi nusxa kim tomonidan yozilganligini va bu asar bilan qanday daxldorligi mavjudligi, asarni nusxalashda qaysi qo‘lyozmaga tayanilganligi to‘g‘risida nusxa mualliflari ma‘lumot keltirishmagan. Shu sababdan asar nusxalarini o‘rganish jarayonida ular bir biridan prinsipial jihatdan farq qilib, nusxalarning tayanch manbasi asl nusxami yoki boshqa davrda nusxalanganligini bilish anchagina mushkul bo‘lgan. Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek Navoiy Asarlarining aksariyati XX asr birinchi choragiga qadar o‘rganilgan va ular bilan bog‘liq ilmiy ishlar olib borilgan. Bundan tashqari, Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy tekstini tuzish sohasida ham XX asrning qirqinchi yillarida ancha ko‘lamli ishlar olib borildi. Masalan Navoiyning besh yuz yillik yubileyi munosabati bilan “Xamsa” tarkibiga kirgan asarlarning ustida ilmiy-tanqidiy izlanishlar olib borildi. “Lison ut-tayr” asarining ilmiy tanqidiy matni ham ana shu qilingan ishlarning davomi bo‘lganligi sababli Alisher Navoiy asarlarining ommaviy va ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzish sohasida qilingan ba‘zi muhim ishlar bilan tanishib o‘tsak foydadan holi bo‘lmaydi. Bularga “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Mezon ul-avzon”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Majolis un-nafois” asarlari misoldir.

Yuqoridagilarga asoslanib shunday xulosaga kelish mumkinki, Alisher Navoiy asarlari matni ustida olib borilgan ishlar ham ancha murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Navoiy asarlari yuzasidan birinchi marta qirqinchi yillarda olib borilgan matnshunoslik ishlari asosan litografiya, bosma nusxalarga asoslanib, lotin alifbosida ko‘chirilib, prinsiplarida faqat tayanch nusxaga boshqa nusxalarning munosabati

matn apparatida qayd qilingan bo'lsa, keyingi yillarda matnshunoslik ishida Navoiy asarlarining mualliflariga eng yaqin turgan nusxalarni topish, matnlarni nasta'liq xati bilan ko'chirish imkoniyatiga ega bo'lingan. Bu olib borilgan ishlarning prinsiplarida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Birinchi davrlarda tayanch nusxaga nisbatan berilgan boshqa nusxalarning farqlari faqat matn apparatida qayd qilingan bo'lsa, keyingi ishlarda faol tanqidiy tanlash prinsiplarini qo'llagan ilmiy-tanqidiy matnlarni ko'ramiz. O'zbek adabiyoti tarixiy yodgorliklarini tanqidiy o'rganish, matnshunoslik ishlari ham o'zbek adabiyotining boshqa sohalari bilan birga o'sib rivojlanib bormoqda. "Lison ut-tayr"ning ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda foydalanilgan qo'lyozma fondlari Leningrad Davlat xalq kutubxonasining Sharq qo'lyozmalari fondida Leningrad qo'lyozmalar fondi, M. E. Saltykov-Shchedrin nomidagi Nizomiy, Ibn Sino, Navoiy, Fuzuliy kabi Sharqning mashhur adiblari, shoirlari va olimlarining nodir qo'lyozmalari saqlanmoqda. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" asarining eng nodir qo'lyozmalari ham mazkur qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Bular quyidagilardan iborat:

"GPB 55, 904 — 1498/99 yillarda ko'chirilgan;
GPB 588, № XVII, 4 — 1001/1004–1592/93–1595/96 yillarda ko'chirilgan;
GPB. Tur. n. s. 215 — 1272–1855/56 yillarda ko'chirilgan.
Yana Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" asarining qo'lyozmalari
SSSR Fanlar akademiyasi Osiyo xalqlari instituti Leningrad bo'limining
Qo'lyozmalar fondida ham saqlanmoqda. Bular quyidagilardan iborat:
IVV 283, XVII 5 — 1212–1797/98 yillarda ko'chirilgan;
IVE 1, № XVII 10 — 1219–1804/5 yillarda ko'chirilgan;
IVV 2378, № XVII 7 — 1227–1812 yilda ko'chirilgan;
IVD 190, № XVII 12 — 1253–1837/38 yillarda ko'chirilgan;
IVV 1914 (Nova 277) — XIX asrda ko'chirilgan"[2:25].

Bundan ko'rinadiki, Leningrad qo'lyozmalar fondida Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" asarining asosan sakkizta qo'lyozmasi mavjud bo'lib, bulardan bittasi XV asrga oid qo'lyozma nusxa hisoblanadi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Sharq qo'lyozmalari fondi o'zining boyligi va ilmiy qimmatini jihatidan dunyodagi Sharq qo'lyozmalari saqlanadigan mashhur xazinalar qatorida turadi. Bu qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan asarlar o'zining qadimiyligi bilan ming yillik davrni o'z ichiga oladi. Bu qo'lyozmalar orasida "Lison ut-tayr"ning quyidagi qo'lyozma nusxalari mavjud:

"1) Inv. nomeri 148-III — 1227–1812 yilda ko'chirilgan;
2) 6503 — 1230–1814/15;
3) 7346 — 1265–1848/49;
4) 5984-I — 1280–1863/64.
7560-1.
Ko'chirilgan yillari:
5. 1216–1801/02;
6. 1227–1812;
7. 1234–1818/19;
8. 1238–1822/23;
9. 1230–1823/24;

10. 1248–1832/33;
11. 1257–1841/42;
12. 1264–1847/48;
13. 1266–1849/1850;
14. 1298–1880/81;
15. 1093–1682 yilda ko'chirilgan;
16. 1243–1827/1828;
17. 1254–1838/39;
18. 1271–1854/55;
19. 1273–1856/57".[2:25-26]

Bu keltirilgan ma'lumotlardan hamda ko'chirilgan yili noma'lum bo'lgan qo'lyozmalarining paleografik xususiyatlaridan ko'ramizki, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" asarining mavjud qo'lyozmalarining deyarli hammasi XVIII–XIX asrlarda ko'chirilgan nusxalardir. Faqat 1679 inventar raqamli qo'lyozma nusxa XVII asrda ko'chirilgan. Dushanba qo'lyozmalar fondi. Tojikiston Fanlar akademiyasining qo'lyozmalar fondida ham ko'pgina qimmatli qo'lyozmalar to'plangan. Bunda Navoiyning boshqa asarlar qo'lyozmalari qatorida "Lison ut-tayr" qo'lyozmasi ham mavjud. U yerda Navoiy asarlarining kulliyoti 1990 inventar raqami ostida saqlanmoqda. Bu kulliyotga Alisher Navoiyning boshqa asarlari bilan birga "Lison ut-tayr" asari ham kiritilgan. Kulliyot o'zining qadimiyligi bilan eng nodir qo'lyozma nusxalardan hisoblanadi. Ya'ni u 905–1499/1500 yillarda ko'chirilgan. Kulliyotga kirgan Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" asarining qo'lyozma nusxasidan filologiya fanlari doktori Hamid Sulaymonovning yordami tufayli, bu asarning tanqidiy mantini tuzishda foydalanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ш. Шарипов. Лисон ут-тайр. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 160 б.
2. Ш. Эшонхўжаев. Лисон ут-тайр илмий-танқидий матн. – Тошкент: Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти, 1965. – 234 б.
3. А. Navoiy. Lison ut-tayr. O'z FA Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, inv.N 3. – 599 b.
4. S. Olimov. Lison ut-tayr va jahon adabiyoti. – Toshkent: "Xalq so'zi" gazetasi, 2023. Yanvar. – 4 b.
5. А. Навоий. Лисон ут-тайр. Асарлар. 15 томлик. 11-том. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1966. – 171 б.
6. Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 784 b.
7. M. Abdulxayr, A. Pardayev. Lison ut-tayr. – Toshkent, Yoshlar matbuoti, 2022. – 544 b.
8. B. Mengliyev. Lison ut-tayr (Moslashtirilgan matn). – Toshkent, 2025. – 722 b.